

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 3
ISSUE 2 2023

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

3-JILD, 2-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
ТОМ-3, НОМЕР-2

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY
VOLUME-3, ISSUE-2



TOSHKENT - 2023



ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№2 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2023-2>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

MIRZAYEV IBODULLA
f.f.d., professor (O'zbekiston)
МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
MIRZAYEV IBODULLA
DSc, professor (Uzbekistan)

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:

JABBOROV NURBOY
f.f.d., professor (O'zbekiston)
ЖАББОРОВ НУРБОЙ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
JABBOROV NURBOY
DSc, professor (Uzbekistan)

TAHRIRIY HAY'ATI:

ILMIY MASLAHAT KENGASHI

Muhiddinov Muslihiddin
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Sirojiddinov Shuhrat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Rasulov Ravshanxo'ja
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilorom Salohiy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Sodiqov Qosimjon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Mark Tutan
f.f.d., professor (Fransiya)
Binnatova Almaz Ulvi
f.f.d., professor (Ozarbayjon)
To'xliyev Boqijon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shodmonov Nafas
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ramiz Asker
f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Yo'ldoshev Qozoqboy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Jo'raqulov Uzoq
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Funda Toprak
f.f.d., professor (Turkiya)
Nabiulina Guzal
f.f.d., professor (Tatariston)
Yusupova Dilnavoz
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Rahim Ibrohim
f.f.d., professor (Afg'oniston)
Suvonova Jumagul
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Muhammadiyev Ahadjon
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asadov Maqsud
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sultanov Tulkin
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Mirzayev Rahmatilla
y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)
Muhitdinova Badia
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Ruzmanova Roxila
dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)

Toshqulov Abduqodir
i.f.d., (O'zbekiston)
Xalmuradov Rustam
t.f.d., professor (O'zbekiston)
Eshqobil Shukur
O'zbekiston Respublikasida xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir (O'zbekiston)
To'xtasinov Ilhom
p.f.d. (O'zbekiston)
Rixsiyeva Gulchehra
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Benedek Peri
f.f.d., professor (Vengriya)
Ko'chiyev Ismat
publisist, O'zbekiston va Belorussiya
yozuvchilar uyushmasi a'zosi (O'zbekiston)
Olimov Karomatillo
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dadaboyev Hamidulla
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Aitpayeva Gulnora
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Rahmonov Nasimxon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shomusarov Shorustam
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dyu Rye Andre
f.f.d., professor (Fransiya)
Pervin Chapan
f.f.d., professor (Turkiya)
Hamroyev Juma
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibrohimov Elchin
f.f.n., professor (Ozarbayjon)
Jo'rayev Shokirjon
F-m.f.d., professor (O'zbekiston)
Hasanov Shavkat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nurullo Oltoy
f.f.n., (Afg'oniston)
Xalliyeva Gulnoz
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Alim Labib
f.f.d., professor (Afg'oniston)
Nodira Afoqova
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Aftondil Erkinov
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Narziyeva Ma'mura
kotib, o'qituvchi (O'zbekiston)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Мухиддинов Муслихиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Сирожиддинов Шухрат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Расулов Равшанхужа
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилором Салохий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Содиков Косимжон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Марк Тутан
д.ф.н., профессор (Франция)
Биннатова Алмаз Улви
д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Тухлиев Бокижон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шодмонов Нафас
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Рамиз Аскер
д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Юлдашев Казакбай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Журакулов Узок
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Фунда Топрак
д.ф.н., профессор (Турция)
Набиулина Гузаль
д.ф.н., профессор (Татаристан)
Юсупова Дилнавоз
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Рахим Иброхим
д.ф.н., профессор (Афганистан)
Сувонова Жумагул
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Мухаммадиев Ахаджон
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Асадов Максуд
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Султанов Тулкин
PhD, доцент (Узбекистан)
Мирзаев Рахматилла
к.ю.н., доцент (Узбекистан)
Мухитдинова Бадиа
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Рузманова Рохила
доц., отв. секретарь (Узбекистан)

НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Тошкуллов Абдукодир
к.э.д., (Узбекистан)
Халмуратов Рустам
д.т.н., профессор (Узбекистан)
Эшкобил Шукур
Заслуженный работник культуры
Республики Узбекистан, поэт (Узбекистан)
Тухтасинов Илхам
д.п.н. (Узбекистан)
Рихсиева Гулчехра
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бенедек Пери
д.ф.н., профессор (Венгрия)
Кочиев Исмаи
Публицист, член Союза писателей
Узбекистана и Беларуси (Узбекистан)
Олимов Кароматилло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Айтпаева Гулнора
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Рахмонов Насимхон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шомусаров Шорустам
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дю Рье Андре
д.ф.н., профессор (Франция)
Первин Чапан
д.ф.н., профессор (Турция)
Хамроев Джума
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Иброхимов Элчин
к.ф.н., профессор (Азербайджан)
Джураев Шокирджон
д.ф.-м. н., профессор (Узбекистан)
Хасанов Шавкат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нурулло Олтой
к.ф.н., (Афганистан)
Халлиева Гулноз
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Алим Лабиб
д.ф.н., профессор (Афганистан)
Нодира Афокова
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Афтондил Эркинов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нарзиева Мамура
секретарь, преподаватель (Узбекистан)

EDITORIAL BOARD:

- Mukhiddinov Muslikhiddin**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Sirojiddinov Shukhrat**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Rasulov Ravshankhuja**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Dilorom Salokhiy**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Sodikov Kosimjon**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Mark Tutan**
Doc. of philol. scien., prof. (France)
- Binnatova Almaz Ulvi**
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)
- Tukhliev Bokijon**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Shodmonov Nafas**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Ramiz Asker**
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)
- Yuldoshev Kozokboy**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Jurakulov Uzok**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Funda Toprak**
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)
- Nabiulina Gulal**
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)
- Yusupova Dilnavoz**
Doc. of philol. scien., assoc. prof. (Uzbekistan)
- Rakhim Ibrokhim**
Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)
- Suvonova Jumagul**
Cand. of philol. scien., assoc. prof. (Uzbekistan)
- Mukhammadiyev Akhadjon**
Cand. of philol. scien., assoc. prof. (Uzbekistan)
- Asadov Makhsud**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Sultanov Tulkin**
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
- Mirzayev Rahmatilla**
Cand. of legal scien., assoc. prof. (Uzbekistan)
- Mukhitdinova Badia**
Cand. of philol. scien., assoc. prof. (Uzbekistan)
- Ruzmanova Rokhila**
Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)

SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

- Toshkulov Abdukodir**
Doc. of econ. scien., (Uzbekistan)
- Khalmuradov Rustam**
Doc. of technic. scien., prof. (Uzbekistan)
- Eshqobil Shukur**
Honored Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)
- Tukhtasinov Ilkhom**
Doc. of pedag. scien. (Uzbekistan)
- Rikhsieva Gulchekhra**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Benedek Peri**
Doc. of philol. scien., prof. (Hungary)
- Kochiyev Ismat**
Publicist, member of the Writers' Union of Uzbekistan and Belarus (Uzbekistan)
- Olimov Karomatullo**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Dadaboev Khamidulla**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Aitpaeva Gulnora**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Rakhmonov Nasimxon**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Shomusarov Shorustam**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Dyu Rye Andre**
Doc. of philol. scien., prof. (France)
- Pervin Chapan**
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)
- Khamroev Juma**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Ibrokhimov Elchin**
Cand. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)
- Juraev Shokirjon**
Doc. of phys.-math. scien., prof. (Uzbekistan)
- Khasanov Shavkat**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Nurullo Oltoy**
Cand. of philol. scien., (Afghanistan)
- Khallieva Gulnoz**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Alim Labib**
Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)
- Nodira Afokova**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Aftondil Erkinov**
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
- Narziyeva Ma'mura**
Secretary, teacher (Uzbekistan)

ALISHER NAVOIYNING 582 YILLIK YUBILEYIGA BAG'ISHLANADI

Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi. Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egalladi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Miromonovich Mirziyoyev**

ПОСВЯЩАЕТСЯ 582 ЛЕТНОМУ ЮБИЛЕЮ АЛИШЕРА НАВОИ

Бесценное творческое и научное наследие великого поэта и мыслителя, известного государственного и общественного деятеля Алишера Навои играет важную роль в истории не только отечественной, но и мировой литературы, развитии национальной культуры и литературно-эстетического мышления. В своих лирических и прозаических произведениях великий поэт, воспевая высокие общечеловеческие идеи, демонстрировал богатый лексический запас и выразительные средства родного языка, благодаря чему занял достойное место в сердцах миллионов читателей по всему миру.

**Президент Республики Узбекистан
Шавкат Миромонович Мирзиёев**

DEDICATED TO THE 582nd ANNIVERSARY OF THE BIRTH OF ALISHER NAVOI

The invaluable creative and scientific heritage of the great poet and thinker, famous statesman and public figure Alisher Navoi has a special place not only in the history of our people, but also in the history of world literature, the development of our national culture and literary and aesthetic thinking. The great poet, in his poetic and prose works, with his whole charm and grace, has taken a worthy place in the hearts of millions of readers around the world, expressing the high universal ideas, the incomparable richness of words and the infinite possibilities of expression of our native language.

**President of the Republic of Uzbekistan
Shavkat Miromonovich Mirziyoyev**

AZIZ MUSHTARIY!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash ro'g'risida"gi PQ-4865-son Qarorida "Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rnini hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug' shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ'ib etish..." lozimligi alohida ta'kidlangan.

Bu filologiya ilmi va navoiyshunoslik, xususan, adabiy ta'sir, qiyosiy adabiyotshunoslik, matnshunoslik va tarjima masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar zimmasiga jahonning ilg'or texnologiyalari, nazariy g'oyalarga hamohang ilmiy tadqiqotlar yaratish vazifasini yuklaydi. Olimlarimizning ilmiy salohiyati, innovatsion g'oyalarni jahonda targ'ib qilish va qo'llab-quvvatlash maqsadida xalqaro nufuzga ega ushbu jurnal ta'xis etildi.

"Alisher Navoiy" deb nomlangan ushbu jurnalda navoiyshunoslik, Navoiy adabiy merosining umumjahon tamaddunida tutgan o'rni va adabiy ta'sir masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilarni o'z maqolalari bilan ishtirok etishga taklif qilamiz.

TAHRIRIYAT

УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

В Постановлении №ПП-4865 Президента Республики Узбекистан Шавката Миромоновича Мирзиёева "О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои" особо отмечается "огромное значение произведений Алишера Навои, в которых нашли глубокое отражение национальные и общечеловеческие ценности, в развитии мировой культуры, их роль в повышении интеллектуального потенциала и духовно-нравственном воспитании молодого поколения, а также в целях обеспечения дальнейшего изучения и популяризации литературно-научного наследия великого поэта и мыслителя..."

Это ставит задачи перед филологами, навоиоведами, исследователями литературного влияния, сравнительного литературоведения, текстологии и вопросов перевода создания научных исследований, соответствующих передовым мировым технологиям и теоретическим идеям. В целях пропаганды и продвижения научного потенциала и инновационных идей наших ученых учреждён данный международный журнал.

Приглашаем публиковать свои статьи в нашем журнале "Алишер Навои" отечественных и зарубежных исследователей, занимающихся изучением жизни и творчества литература Навои, его роли в мировой литературе, проблемами литературного влияния и сравнительной поэтикой.

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

DEAR READER!

Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "On the celebration of the 580th anniversary of the great poet and thinker Alisher Navoi" No PP-4865 given the invaluable role of cultivating high moral qualities in their hearts, as well as the need to further study and widely promote the literary and scientific heritage of the great poet and thinker in our country and internationally "

This puts the task of researchers in the field of philology and Navoi studies, in particular, literary influence, comparative literature, textual studies and translation, in creating scientific research in harmony with the world's advanced technologies and theoretical ideas. This internationally renowned journal was established to promote and support the scientific potential and innovative ideas of our scientists around the world.

In this magazine, called "Alisher Navoi", we invite researchers who are interested in Navoi studies, the role of Navoi's literary heritage in world civilization and literary influence to participate with their articles.

EDITORIAL

NAVOIY VA JAHON ADABIYOTI

1. **Osman Fikri Sertkaya**
ALİ ŞİR NEVÂ'Î'NİN TÜRK DÜNYASINA TESİRİ.....10
2. **Афтондил Эркинов**
ЎЗБЕКИСТОНЛИК РОМАН-ГЕРМАН ФИЛОЛОГИЯСИ МУТАХАССИСЛАРИ –
ХОРИЖИЙ НАВОИЙШУНОСЛИК ИЛК ТАДҚИҚОТЧИЛАРИ.....16
3. **Zebo Yaxshiyeva**
NAVOIY VA INGLIZ ADIBLARI IJODIDA AMIR TEMUR OBRAZI TALQINLARI.....25

NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI

4. **Usmon Qobilov**
ALISHER NAVOIY “BADOYI’ UL-BIDOYA” DEVONIDA NUBUVVAT MASALASI VA
MASIH OBRAZI TALQINI.....30
5. **Jumagul Suvonova**
ABADIYATNING BESH DOVONI41
6. **Abdurayim Turobov**
KIM MUHABBAT BIRLA TUZGAYLAR NAVO (“LISON UT-TAYR” TAHLILI
MISOLIDA).....49

MA’RIFAT YOG’DUSI

7. **Ahadjon Muhammadiyev**
NAVOIY MA’RIFATINI ANGLASH.....57
8. **Toji Norov**
ALISHER NAVOIY IJODIDA BORLIQ MASALASINING FALSAFIY TALQINI.....66

NAVOIY POETIKASI

9. **Dilnoza Buronova**
MUMTOZ ADABIYOTDA BADIY USLUBNING NAMOYON BO’LISHI.....91

ASLIYAT UMMONI

10. **Saidbek Boltaboyev**
O’G’UZ YURTLARIDA YOZILGAN NAVOIY LUG’ATLARI VA NAVOIY
ASARLARINING O’G’UZCHAGA O’GIRILISHI.....97
11. **Mariya Sabtelni**
XVI ASRNING BOSHIDA MARKAZIY OSIYODA SAN’AT VA SIYOSAT. Ingliz tilidan
Gulandom Yo’ldosheva tarjimasini.....110

ILM, OLAM VA OLIM

12. **Akbarxon Asrorov, Mardon Boltayev**
UBAYDULLOH XOJA AHRORI VALI HAZRATLARI AKADEMIK BOTIRXON
VALIXO’JAYEV TALQINIDA.....117


13. **Dilshoda Hasanova**
AKADEMIK BOTIRXON VALIXO‘JAYEVNING XAMSACHILIK AN‘ANASI VA NAVOIY “XAMSA”SIGA DOIR QARASHLARI TAHLILI.....122
14. **Гулабза Қаршиева**
АЛИШЕР НАВОЙНИНГ “ҲАЙРАТ УЛ-АБРОР” ДОСТОНИ ҒОЯЛАРИНИНГ МИНИАТЮРА АСАРЛАРИДАГИ ТАЛҚИНИ (ШАҲЗОДА БАДИУЗЗАМОН ҚЎЛЁЗМАСИ МИСОЛИДА).....131

NAVOIY VA TA‘LIM-TARBIYA MASALALARI

15. **Насиба Очилова, Шоира Темирова**
СОВРЕМЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА АЛИШЕРА НАВОЙ: КАК ЕГО ИДЕИ И ЦЕННОСТИ МОГУТ БЫТЬ АКТУАЛЬНЫМИ ДЛЯ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА.....146

RETRO

16. **Ibrohim Haqqulov**
SOQIYNOMA – HAYOT VA SHODLIK MANZUMASI.....151




NAVOIY POETIKASI

Dilnoza BURONOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti,
Ingliz tili tarixi va grammatikasi o'qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi
E-mail: dilnozabb@gmail.com

MUMTOZ ADABIYOTDA BADIY USLUBNING NAMOYON BO'LISHI

For citation: Dilnoza Buronova. MANIFESTATION OF ARTISTIC STYLE IN CLASSICAL LITERATURE. Alisher Navoi. 2023, vol. 3, issue 2, pp.91-96

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8399800>

ANNOTATSIYA

Maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida uslub muammosi alohida masala sifatida XX asrdan boshlab o'rganilgan bo'lsa-da, mumtoz adabiyot tarixida ham turli qarashlar borligi va ularning namoyon bo'lishi haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada taniqli tarix mutaxassislarining mulohazalari va xulosalari va masalaning tahlil darajasi, badiiy matn pragmatikasi va badiiy uslub nazariyasi haqidagi qarashlar umumlashtirilgan. Navoiy badiiy uslubidagi o'ziga xosliklar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: badiiy uslub, geografik o'ziga xosliklar, mintaqaviy adabiyot, ijtimoiy-tarixiy sharoitlar, adabiy-estetik tafakkur, konsepsiyasining genezisi, g'azal uslubi, qasida uslubi.

Дильноза БУРОНОВА,
Самаркандский государственный институт
иностранных языков, преподаватель истории и
грамматики английского языка,
независимый исследователь
E-mail: dilnozabb@gmail.com

ПРОЯВЛЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО СТИЛЯ В КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

АННОТАЦИЯ

Хотя проблема стиля изучается как отдельная проблема в современном узбекском литературоведении с 20-го века, говорится о различных взглядах и их проявлении в истории классической литературы. Также в статье обобщаются мнения и выводы известных историков и уровень анализа вопроса, прагматика художественного текста, теория художественного стиля. Анализируются особенности художественного стиля Навои.

Ключевые слова: художественный стиль, географические особенности, региональная литература, социально-исторические условия, литературно-эстетическое мышление, генезис его концепции, стиль газаль, стиль оды.

Dilnoza BURONOVA,
Samarkand State Institute of Foreign Languages,
teacher of English history and grammar,
independent researcher
E-mail: dilnozabb@gmail.com

MANIFESTATION OF ARTISTIC STYLE IN CLASSICAL LITERATURE

ANNOTATION

Although the problem of style has been studied as a separate issue in modern Uzbek literary studies since the 20th century, it is said that there are different views and their manifestation in the history of classical literature. Also, the article summarizes the opinions and conclusions of well-known history experts and the level of analysis of the issue, the pragmatics of the artistic text, and the theory of artistic style. The peculiarities of Navoi's artistic style are analyzed.

Keywords: artistic style, geographical peculiarities, regional literature, socio-historical conditions, literary-aesthetic thinking, genesis of its concept, ghazal style, ode style.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Sh.M.Mirziyoyevning "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorida yoshlar o'rtasida kitobxonlikni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jihat, eng avvalo, Navoiy asarlarini targ'ib qilish, Navoiy haqidagi badiiy asarlarni mutolaa qilish, uning o'ziga xos, milliy va badiiy uslubini o'rganish orqali, qisqa qilib aytganda, uni anglash orqali amalga oshadi.

Alisher Navoiy haqida I.A.Karimov "Buyuk gumanist shoirimiz faoliyati va ijodiga teran nazar tashlasak, uning dahosi ijtimoiy hayotning, mafkura va madaniyatning barcha sohalarini qamrab olganidan hayratga tushamiz" degan edilar. Darhaqiqat, Navoiy hazratlarining o'sha davrga xos va shu bilan bir qatorda boshqalardan ajralib turadigan o'ziga xos qalam uslubi bor edi. Zero, o'zbek mumtoz adabiyotining o'ziga xos jihatlari ham she'r qalbidan chiquvchi badiiy vositalarning nozikligi bilan belgilanadi. Shoirning mahorati uning qo'llayotgan she'riy san'atlarining o'ziga xosligi, adabiyotning estetik vazifasini qay darajada umumlashtirishi bilan ham belgilanadi. Bu borada, ayniqsa, Alisher Navoiy asarlari diqqatga sazovordir. Chunki kichik qit'alardan tortib yirik "Xamsa" dostonlarigacha bunday buyuk san'at namunalari ko'p uchratish mumkin. "Farhod va Shirin" dostoni badiiyatining muhim omillaridan biri ulug' ijodkorning badiiy vositalardan mohirona foydalanganligidir.

Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida uslub muammosi alohida masala sifatida XX asrdan boshlab o'rganilgan bo'lsa-da, mumtoz adabiyot tarixida ham, yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu borada muayyan fikrlarga duch kelamiz. Navoiy badiiy uslubiga to'xtaladigan bo'lsak, allomaning asarlari uning o'ziga xos uslubining dunyo miqyosida ham o'rganilganligini guvohi bo'lamiz. Dastlab tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk mutafakkirimizning asarlari XVI asrdayoq g'arb dunyosida ommalashgani e'tiborimizni tortadi. Jumladan, 1557-yili Venetsiyada italyan tilida "Pregri nagsio di tre giovana figliuoki del Re di Sereudippo per opera Christoforo Armena della Persiana nelli Italyana linguafrapportato", ya'ni "Shoh Sarandipning uch navqiron o'g'lonlarining qanday qilib ziyoratga borgani, janob Xristofor Armani forsiydan italyan tiliga o'g'irgan" nomli kitob nashr qilingan [Sapayeva]. Bu kitob juda ommalashgan, Sharq dunyosi haqida turli hikoyalar Yevropa uchun juda qiziqarli edi, sababi jumboqli ko'ringan Islom dunyosi haqida har qanday ma'lumot tezlikda ommalashar edi. Buning isboti sifatida ushbu kitob bir necha marta nashr etilganini aytsak bo'ladi. Italyan tilidan 1883-yilda nemis tiliga o'giriladi. Bungacha bu asar ingliz, fransuz va golland tillariga ham o'girilib, butun Yevropa bu asarga katta qiziqish bildira boshlaydi. Ushbu asar ikki qismdan

iborat bo'lgan. Dastlabki qismi Sarondip shohi o'zining uch o'g'loni haqida bo'lib, unda asosan farzand tarbiyasi hikoya qilanadi. Xristofor o'z tarjimasini qaysi asardan o'g'irganligini ko'rsatmagan. Hatto Xristofor Armaniyning o'zi haqida ham aniq ma'lumot yo'q. Italiyan tilidagi sarlavha asar fors tili (lingua persina) dan o'g'irganligi yozilgan (O'sha paytlarda ozarbayjon tili fors tili (lingua persina) deb atalgan. Shu sababli asar muallifini aniqlashning iloji bo'lmagan. Faqatgina muqaddimada bu kitob muallifi Tavriz shahridan ekanligi ko'rsatilgan – bu Eronning Tabriz shahridir. Benfiyning asliyat muallifini aniqlashda adashganligini Y.E.Bertels shunday izohlaydi. “Buning ajablanarli joyi yo'q. Navoiy asarlaridan o'ta muvaffaqiyat bilan foydalangan asarlar qo'lyozmasi shoirning tiriklik davridayoq Turkiya va Ozarbayjonga yetib borgan va asrlar mobaynida barchaning e'tiborini tortgan” [Sapayeva].

Badiiy-estetik tafakkur tadriji mumtoz adabiyotimiz, ayniqsa, butun turkiy olamda va dunyo tamaddunida ham yuksak mavqeni egallagan buyuk Alisher Navoiy ijodi va estetik an'anasiz to'liq bo'lmagan bo'lar edi.

Mumtoz adabiyotda adabiy janrlarning ko'p turlarida badiiy asarlar yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, asosan, she'riy janrlarga g'azal, qasida, ruboiy, qit'a, fard, musammatlarga ko'proq e'tibor qaratilgan. Katta hajmli hisoblangan doston-masnaviy janrida esa alohida doston-masnaviy janrida buyuk bobokalonimizning Alisher Navoiyning ishlari, jumladan, “Lison ut-tayr”i, turkum doston-masnaviy, ya'ni xamsa janrida “Xamsa”si yaratildi. Nasriy asarlar yozish ham keng rivojlanib, tarixiy janrda “Tarixi muluki Ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, falsafiy “Nasoyim ul-muhabbat”, pand-nasihati va ijtimoiy “Mahbub ul-qulub”i, ilmiy “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug'atayn”, “Mezon ul-avzon” kabi asarlar maydonga keldi. Bu asarlarning hammasida ham mumtoz nasrda qo'llaniladigan san'atlar, jumladan, saj' keng ishlatilgan. Shu jihatdan nasriy asarlarda badiiy uslub anchagina ko'zga tashlanishni boshlaydi. Nasr taqdimoti o'z davri adabiy jarayondagi yangilik bo'lib, Navoiy ijodini targ'ib qilish va ommalashtirishga qaratilgan nashriyot ishlaridan biri sifatida vujudga keldi [Тожибоева 2019: 33].

Navoiy badiiy ijod olamida qanchalar ulug'lik maqomga ko'tarilgan bo'lsa, jahon adabiy-estetik tafakkur olamida ham shu qadar yuksak mavqeni egallaydi va umumbashariy ahamiyatga ega ilmiy meros qoldiradi. “Buyuk mutafakkirning badiiyat, tanqid-adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohalaridagi beqiyos kashfiyotlari va noyob asarlari samarasi o'laroq, XV asrda badiiy ijod va estetika sohasida yaxlit bir ta'limot vujudga keldi. Jahon adabiy-estetik tafakkuri yutuqlarini kamsitmagan holda Navoiy yaratgan ilmiy-nazariy ta'limot so'z san'ati va nafosat ilmining keyingi asrlardagi taraqqiyoti uchun ham ijodiy dasturilamal bo'lib xizmat qilayotganini faxr bilan ta'kidlash lozim. Taassufki, totalitar tuzumda bu bebaho adabiy-estetik merosimiz mohiyatini to'la anglash va uni munosib qadrlashga imkon berilmagan” [Шуворова 2012: 6].

Alisher Navoiyning ilmiy-adabiy merosi o'ziga xos qarashlar mavjudligini salafimiz ta'kidlashgan. Xususan, buyuk mutafakkir shoir ham uslub xususida to'xtalib, o'ziga xos usulda unga munosabat bildirib o'tadi. Bu xususda, qator ustoz olimlarning hamda yuqorida ta'kidlangan M.Davronovanning tadqiqotida ham eslatiladi: “Bu kabi qarashlarni “Majolis-un nafois”da kuzatishimiz mumkin. Demak, sharq adabiyotida Alisher Navoiy forsiy va turkiy adabiyotning uslub jihatdan dastlabki tadqiqotchisidir. Biroq Alisher Navoiy asarlarida uslub so'zi ko'pincha janr ma'nosida (g'azal uslubi, qasida uslubi) ishlatiladi” [Davronova 2019: 47].

Holbuki, ulug' shoir ijodida tanosub tushunchasining o'rni va ma'nosi ancha katta. Navoiy ijodida tanosub alohida san'at turi emas: uslub ko'rinishi bo'lgan tanosub nafaqat ma'no jihatdan bir xil yoki yaqin so'zlarni o'z ichiga oladi, balki boshqa ko'plab xususiyatlar bilan bog'langan. Alisher Navoiy ijodi tadqiqotchilari uning she'riy tilining yangiligi va o'ziga xosligini qayta-qayta ta'kidlaganlar. O'ziga xos obrazlilik va majoziy xarakter buyuk ustoz uslubini ajratib turadi va uning she'riy merosini Sharq lirikasining eng ko'zga ko'ringan namoyandalari orasida alohida o'ringa qo'yadi.

Shuningdek, olim mumtoz o'zbek adabiyoti misolida uslub masalasini o'rgangan Y.Ishoqov o'zbek mumtoz adabiyotida uslubni “uchga ajratib tasnif etadi: turkona uslub; mumtoz (klassik) uslub; oliy yoki navoiyona uslub. Shu bilan bir qatorda Y.Ishoqov uslub haqida fikr yuritir ekan, u “Navoiy lirikasining poetikasiga xos xususiyatlar murakkab va salmoqli badiiy uslubning

shakllanganligidan dalolat beradi” degan to‘g‘ri xulosaga keladi, deya ustoz olim fikrlarini ma‘qullaydi. Bu borada yosh olim fikrlarida tizimlilik va izchillik seziladi.

Boshqacha aytganda, Navoiy ijodida tashbeh, istiora, tazod, talmeh, ilizom, ishtiyoq, shibxi ishtiyoq kabi badiiy siymolarning butun majmuasi va boshqa o‘nlab so‘z va ma‘noli uslublar tanosub qonunlari bilan o‘zaro bog‘langan, bu badiiy tafakkurning o‘ziga xos turi sifatida namoyon bo‘ladi. Ulug‘ shoir ijodi uslubiga xos bo‘lgan bu xususiyatni to‘qsak tanosub (eng yuqori yozishmalar) yoki zanjirsimon aloqadorlik (zanjirsimon o‘zaro bog‘liqlik) deb atash mumkin. Bu uslubning xususiyati shundan iboratki, alohida jumla yoki butun nasriy sarlavha bir yoki ikkita markaziy so‘z ustiga qurilgan bo‘lib, boshqa so‘z va nutq vositalari markaziy so‘z bilan qandaydir tarzda bog‘lanadi va bu bog‘lanishni mazmun, ma‘noda kuzatish mumkin. Markaziy so‘z asosiy mavzu, tasvirlangan tasvir yoki tafsilot bo‘lishi mumkin [Kurbanov 2016: 3].

O‘tgan asr adabiyotshunosligi tarixiga e‘tibor qaratsak, sobiq Sho‘rolar adabiyoti uslubi borasidagi fikrlarni istisno qilganda, qanchalik mafkuraviy va siyosiy cheklovlar bo‘lmasin, baribir olimlar milliy adabiyotimiz va ijodkorlarning individual uslubi borasida firqaviylikdan xolis bo‘lgan ayrim fikrlarni aytib ketishganligiga guvoh bo‘lamiz. Ayniqsa, bu borada oliy ta‘lim tizimida nazariy adabiyotshunoslik fanlarini o‘qitilishida ilmiy tadqiqotlarning nazariy xulosalarini umumlashtirgan monografik darsliklarda uslubga ajratilgan boblar alohida ajralib turadi. Xususan, adabiyotshunos Izzat Sulton Alisher Navoiy ijodiga to‘xtalar ekan, uning “Farhod va Shirin” asari misolida shoir uslubini oliy uslub, deya tadqiq etadi. Umuman, akademik Izzat Sulton boshqa adabiyotshunoslarga nisbatan badiiy uslub borasida o‘zining alohida konsepsiyasiga ega olim sifatida e‘tiborni tortadi. Uning konsepsiyasini markazida bu davrda yaratilgan asarlarni ikki toifaga ajratib o‘rganish g‘oyasi yotadi: birinchi toifa yuqorida ta‘kidlanganidek, oliy (yuqori) uslub bo‘lsa, ikkinchisi sodda uslub hisoblanadi. Oliy uslubga olim Alisher Navoiy asarlaridan tashqari Furqat asarlarini kiritadi, sodda uslubga esa Lutfiy va Bobur qalamiga mansub asarlarni namuna sifatida keltiradi. I.Sultonning uslub borasidagi konsepsiyasiga bir qator olimlar bilan bir qatorda M.Davronova ham e‘tibor qaratadi va olim konsepsiyasining ta‘kidlangan o‘rinlariga doir fikrlaridan iqtiboslarni o‘rinli keltiradi [Davronova 2019: 25]. Biroq shu o‘rinda mazkur konsepsiyasining genezisi, ya‘ni paydo bo‘lishi zahirida M.Lomonosovning “высокий штиль” hamda “низкий штиль”, ya‘ni oliy va quyi yoki sodda uslub haqidagi nazariyasi yotganligini munaqqidlar eslatishmaydi. Holbuki, ushbu qarashlar nafaqat o‘n sakkizinchi va o‘n to‘qqizinchi asrlar rus adabiyoti tarixining yozilishida, uslub nuqtayi nazaridan tasniflanishida juda muhim o‘rin tutadi va Izzat Sulton shubhasiz bu ta‘limotdan xabardor bo‘lgan.

Shuningdek, mumtoz adabiyotshunosligimizda akademik B.Valixojayev, professorlar A.Xayitmetov, N.Shukurov, B.Sarimsoqov, X.Umurov, X.Boltaboyev, D.Salohiy, B.Karimov va boshqalarning turfa ijodkorlar va turli adabiy davr jarayonlari munosabati bilan va mumtoz hamda zamonaviy adabiyotimiz borasida ilmiy izlanishlarida uslub poetikasiga doir qimmatli fikrlar bildirilgan. Lekin bildirilgan fikrlar va bajarilgan tadqiqotlarning aksariyati turkiy she‘riyat, aniqrog‘i, mumtoz o‘zbek she‘riyatining uslubiy xususiyatlariga, shuningdek, yangi davr adabiyotiga xos tadqiqotlar bo‘lib, ularda tadqiqot obyekti sifatida milliy adabiyotimiz namunalari, uning ayrim vakillarining ijodi o‘rganilgan, o‘zbek adabiyoti namunalari qiyosiy planda o‘rganish alohida tadqiqot obyekti qilib olinmagan va uslub masalasi qiyosiy aspektida monografik asosda o‘rganilmagan.

Aynan, XX asrda ijodkorning individual uslubi xususida ilmiy davralarda munozaralar boshlandi. Bu davrga kelib adabiyotshunoslar uslub nazariyasini ilmiy ishlab chiqishga erishishdi. Bu paytda amalga oshirilgan tadqiqotlarning tahlillarida adabiy uslub tushunchasi individual mahoratni charxlash, e‘tiborni badiiy tasvir mukammalligiga, o‘ziga xosligiga yo‘naltirish vositasida, takrorlanmas tasvir usullarini yaratish tushunchasini takomillashtirish orqali, individual xususiyat kasb etishning turli-tuman ko‘rinishlarini hosil qiladi va shu taxlit sharhlanadi. Badiiy uslub tarjima jarayonida kata rol o‘ynaydi. Tarjima usulini tanlash yozuvchining nazm yoki nasrda tanlagan shaklga bog‘liq.

E.G.Etkind shunday yozadi: “She‘rning turiga qarab, mantiqiy mazmun, stilistik ifoda va tovush qolipi o‘rtasidagi munosabat o‘zgaradi”. Lirik she‘r tarjimasida ijtimoiy yo‘nalishdagi

asarlarni tarjima qilishda obraz, kayfiyatni etkazish muhim bo'lsa, matnning mazmuni va uslubiy bo'yoqlarini etkazish asosiy vazifadir [Эткинд 1963: 40].

Rus adabiyotshunoslari XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, o'z salaflari g'oyalarini rivojlantirishgan holda individual uslub xususidagi xulosalarni umumlashtiruvchi qator tadqiqotlar yaratishdi. Ular orasida N.G.Pospelovning "Adabiy uslub muammosi" (1970), A.N.Sokolovning "Uslub nazariyasi" (1968), A.F.Losevning "Badiiy uslub muammolari" (1994) kabi monografik asarlar ajralib turadi. Umuman, o'tgan asrda olimlar badiiy uslubni o'rganish natijasida uslub atamasini qaysi badiiy hodisaga va nimaga nisbatan qo'llash haqidagi jumboqqa javob axtaradilar. Aksariyat o'rganuvchilar uslubni shakl bilan aloqador hisoblab, badiiy tasvir va sharhlash kabi ma'nolarni mujassam ettiradi, degan to'xtamga kelishdi. Bundan oldinroq esa, G'arb madaniyatshunosligi va adabiyotshunosligida uslub-stil atamasi borasida turlicha munosabatlar paydo bo'lgan edi. Masalan,

I.V.Gyote uslubni muallifning o'zigagina xos tasvir soddaligi, hayotga muayyan taqlid qilish usuli, uni tasvirlash manerasi tushunchalarni ifoda etuvchi atama sifatida talqin qiladi. Nemis faylasufi Gegel esa ijodkorning yondashuv manerasining turli ko'rinishlari xususida so'z yuritib, takrorlanmas, o'ziga xos yondashish vositasida uslub jarayonni izohlaydi, muallif o'zi yaratgan to'qima tasviriy vositalar ko'magida hayotiy narsalarni jonlantirishi va buni san'at darajasida namoyon qilishi mumkin, degan xulosaga keladi. Ammo mumtoz G'arb nazariyotchilari ko'plab tadqiqotlar o'tkazishgan bo'lishsa-da, uslub borasida yagona to'xtamga, tizimli xulosaga kelisha olmaydi, aksariyat olimlarning ishlari madaniy-falsafiy hamda nazariy-metodologik ahamiyatga ega bo'lib, badiiy matn tahlili va uni qiyosiy planda o'rganish borasida amaliyotga nisbatan kam tatbiq etiladi. Zero, ular aksariyat hollarda xususiy hamda yuqorida ta'kidlanganidek, umum falsafiy xarakterga ega bo'lib, umumfilologik yoki ommaviy keng miqyosda badiiy adabiyotni o'rganishda mukammallik kasb etmaydi.

G'arb adabiyotshunosligida nazariy uslubshunoslik xulosalarini umumlashtirgan holda ommalashtirish va keng miqyosda ta'lim tizimiga joriy etish o'tgan asrning o'rtalari va asosan ikkinchi yarmida avj oldi. Bu jarayon G'arbdagidan farqli o'laroq, bir muncha tizimli va izchillik bilan kechgan rus adabiyotshunosligi borasida bunday deya olmaymiz. Uning so'nggi bir necha o'n yilliklaridagi holati va uslub nazariyasining asosiy bazaviy jihatlarini ishlanishining tahlili, umumyevropa va rus adabiyotshunosligida muallif uslubini o'rganishning nazariy-badiiy metodologik asoslari hamda sohaning rivojlanish tamoyillari to'g'risida nisbatan to'liq tasavvur beradi.

O'zbek mumtoz adabiyotida Xuroson uslubining xususiyatlari Navoiydan oldin ham ko'plab adiblarning she'r va dostonlarida, nasriy asarlarida ham ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda bu uslubning aynan Navoiy ijodida barcha mukammalligi bilan namoyon bo'lishi ko'zga tashlanadi. Alisher Navoiy o'zining oliy insoniy qadriyatlarni e'zozlagani, uning adolat, axloq va insonning ma'naviy yetukligi g'oyalari, ma'rifatparvarlik va inson kamoloti kabi ezgu g'oyalar bilan sug'orilgan "Xazoyin ul-maoniy"dagi she'rlari, yoki "Mahbub ul-qulub" kabi nasriy asarlari, o'zbek adabiyotshunosligida mumtoz adabiyotimizdagi badiiy uslub tamoyillarini tamal toshi bo'ldi desa mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin, o'zbek adabiyotida mumtoz adabiyotda badiiy uslubining salmog'i va uni o'rganishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Bu izlanishlar Navoiy vafotidan ko'p vaqt o'tmayoq boshlangan bo'lib, uning asarlariga maxsus lug'atlar tuzila boshlagani, uning badiiy uslubi turkiy mumtoz adabiyotimiz uchun andaza bo'lib xizmat qila boshlagani so'zimizning yaqqol dalilidir. Tole' Imoniy Hiraviyning "Badoe'ul-lug'at", noma'lum muallifning "Abushqa", Mirzo Mehdixonning "Sangloh" kabi lug'atlari buning yorqin dalilidir.

Иқтибослар/Сноски/References

1. Davronova M.I. Hozirgi o'zbek she'riyatida individual uslub poetikasi (Usmon Azim, Iqbol Mirzo, Faxriyor va Abduvali Qutbiddin she'riyati misolida). Filol.fanl. dokt.diss.avtoreferati, Samarqand, 2019. – 66 b.

2. Sapayeva F.D. Alisher Navoiy asarlari tarjimalari badiyatini anglash. <http://miralishernavoiy.uz/>
3. Wright L., Hope J. Stylistics: A Practical Coursebook. Routledge, 1996.
4. Курбанов А.А. Стиль высочайшего соответствия или цепеобразные смысловые связи, Вестник Челябинского государственного университета. 2016. N 1 (383).
5. Лосев А.Ф. Проблема художественного стиля. – Киев, 288 с.
6. Поспелов Г.Н. Проблемы литературного стиля, Москва, 1970. – 329 с.
7. Соколов А.Н. Теория стиля, М.: Искусство. – 1968. – 223 с.
8. Тожибоева О. Т. Прозаические изложения «Хамсы» Навои : Принципы, критерии, методы : автореф. дисс. ... д-ра филос. наук / О. Т. Таджибаева. – Ташкент, 2019. – 54 с.
9. Шуверова Т. Д. Reading, Translation and Style: лингвостилистический и предпереводческий анализ текста. М.: Прометей, 2012. – 146 с.
10. Эткинд Е. Г. Поэзия и перевод / Е. Г. Эткинд. – Москва-Ленинград: Сов. писатель, 1963. – 431 с.

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

3-JILD, 2-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
ТОМ-3, НОМЕР-2

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY
VOLUME-3, ISSUE-2

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000